

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

OCHILOV AKMAL ESHEMIROVICH

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA O‘QUV VAZIFALARINI
DARAJALI DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA TAQDIM ETISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Ochilov Akmal Eshtemirovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini darajali differensial yondashuv asosida taqdim etish metodikasini takomillashtirish 5

Очиллов Акмал Эштемирович

Совершенствование методики предоставления учебных заданий учащимся начальных классов на основе уровнево-дифференциального подхода 22

Ochilov Akmal Eshtemirovich

Improving the methodology of presenting study tasks to primary class students based on a level differential approach 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

OCHILOV AKMAL ESHEMIROVICH

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA O'QUV VAZIFALARINI
DARAJALI DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA TAQDIM ETISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)

**PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3611 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.qarshidu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurullayeva Shaxlo Uktamovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Urazova Marina Botirovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Adizov Baxtiyor Raxmonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023- yil "___" _____ kuni soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:180100, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+99875) 225-34-13, faks: (+99875) 221-00-56, e-mail: kardu@mail.ru) Qarshi davlat universiteti, Pedagogika fakulteti, 217-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:180100, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+99875) 225-34-13, faks: (+99875) 221-00-56, e-mail: kardu@mail.ru)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "___" _____ kuni tarqatildi
(2023 - yil "___" _____dagi ___ - raqamli reyestr bayonnomasi).

R.D.Shodiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

I.B.Kamolov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d. (PhD), professor

H.O.Jo'rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi o'rinbosari, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy boshlang'ich maktab ta'limini modernizatsiya qilishning eng optimal yo'llarini taklif etish ta'im tizimini rivojlantirishdagi muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Bu borada YUNECKOning "Fundamental (fan-gumanitar) universitet ta'limi" xalqaro simpoziumi memorandumini; YUNESKO tomonidan 1996-1998-yillarda o'tkazilgan mintaqaviy konferensiyalarning xulosalari; Gavanada, Dakarda, Tokioda, Palermoda, Bayrutda ta'lim bo'yicha birinchi Jahon konferensiyasining (1998-yil oktabr, Parij) xulosalari; boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standartlari, eng muhimi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish (EGRA) va matematika (EGMA) bo'yicha o'z qobiliyatlarni baholash tadqiqotlarini tizimga tatbiq etish japayoni boshlang'ich ta'limda yangi tuzilmaning haqiqiy joriy etilishiga olib keldi. Ushbu hujjatlarning mazmuni boshlang'ich ta'limning strategik va asosiy maqsadini belgilaydi. O'quvchilarga ta'limning fundamental xarakterini saqlash, ta'lim yondashuvlari va samarali jahon tajribasiga rioya qilish, imkoniyatlarini namoyon etish, ehtiyojlarini qondirish asosida ta'lim jarayoniga zamonaviy va yuqori sifatli yondashuvlardan foydalanish zarurat hisoblanadi.

Dunyoda rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilib kelayotgan PISA, TIMSS, PIRLS kabi o'quvchilar bilimi darajasini baholash xalqaro tadqiqotlar hamda dasturlar tayyorlash yetakchilik qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish borasidagi tadqiqotlarda kichik maktab yoshidagi bolalar ta'limiga alohida e'tibor qaratilib, o'quvchilarning qiziqishlari, xohish va ehtiyojlariga mos ta'lim berish, shaxsga qaratilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim-tarbiyaga akmeologik va tabaqalashirilgan yondashuv muammolariga bag'ishlangan izlanishlar ustuvorlik qiladi.

Mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama rivojlantirish, ularning o'quv-tarbiyaviy jarayonda bilish faoliyatini faollashtirish jamiyat taraqqiyotida asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilishini inobatga olgan holda "... jamiyatda ta'limning nufuzini oshirish va yoshlarning kamolatga intilishini rag'batlantirish – bu barqaror va izchil taraqqiyotga erishish, maktablarni chinakam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo'llash"¹ muhim vazifa sifatida belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini faollashtirishda o'quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta'limga insonparvarlik tamoyili asosida yondashish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, o'quvchining o'z imkoniyati doirasida qobiliyatlari va intellektual salohiyatini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – B.299-300

yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017- yil 20- apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 1- apreldagi PQ-5047-son “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatini faollashtirish, tafakkurini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlarga doir fundamental tadqiqotlar, elektron darsliklar, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari respublikamiz olimlaridan B.Adizov, R.Ibragimov, E.G‘oziyev, R.Safarova, T.G‘afforova, Sh.Nurullayeva, G.Najimova, Sh.Sharipov, M.Xaqberdiyev, S.Qorayev, F.M.Quchqarova, J.Tolipova, A.Bobomurodova, J.Yo‘ldoshev, M.Mahmudov, G.Ne‘matova, T.Ziyatova, J.Musayev, M.Usmonboyeva hamda boshqalar tomonidan o‘rganilgan².

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan

M.N.Berulava, G.A.Berulava, I.V.Drobisheva, I.M.Smironova, G.D.Gleyzer, I.K.Glushkov, E.A.Golubeva, V.A.Gusev, V.Y.Guryevich, N.Y.Derevyakina, V.Y.Zabranskiyning tadqiqotlarida ko‘zga tashlanadi. E.N.Katkova, D.Ya.Kazak, Ye.A.Klimov, N.S.Kolishev, O.I.Lvova kabi olimlar tomonidan differensial ta‘limning ayrim jihatlarining o‘ziga xos mexanizmlari bayon etilgan³.

² Adizov B.R Boshlang‘ich ta‘limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. diss. ... – Toshkent, 2003.–276 b; G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘zbek faylasuflari milliy jamiyati. 2015.-127 b; Nurullayeva Sh. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodikasi. Ped.fan.nom. ... diss. Toshkent, 2007. – 180 b.. Qoraev S. Fanlarni o‘qitishda tabaqalashtirilgan ta‘lim texnologiyasini joriy etish masalalari // Zamonaviy ta‘lim. 2016. № 12. B.45-50; Quchqarova F.M. Boshlang‘ich sinf darsliklarida o‘quv materiallarini konsentriзм prinsipi asosida strukturalashtirish. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 72 b; G‘afforova T. Boshlang‘ich ta‘limning zamonaviy texnologiyalari. – Qarshi: Nasaf, 2009. – 163 b;

³ Берулава М.Н., Берулава Г.А. Технология индивидуализации обучения на основе учета когнитивного стиля. – Бийск: НИЦ БиГПИ, 1996. – 34 с. Дробышева И.В. Мотивация: дифференцированный подход // Математика в школе. – 2001.

Xorijiy olimlardan S.A.Mednisk, J. Guilford, John Dewey, E.Winner, R.Thorndike, I.K.Silvermanlar tomonidan differensial ta'lim orqali o'quvchilarning bilish jarayonini faollashtirish, kreativlik ko'nikmasini rivojlantirish muammolari bo'yicha nazariy takliflar tizimi ishlab chiqilgan.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning imkoniyati darajasini o'rganish, qobiliyatlarini hisobga olish muammosi mamlakatimiz hamda xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, boshlang'ich sinf o'quvchilarida darajali differensial yondashuv asosida bilish faoliyatini faollashtirishning didaktik mexanizmlarini takomillashtirish, o'quvchilarda interfaol metodlar, dasturiy vositalar asosida amalga oshirish masalasi maxsus tadqiqot predmeti bo'lmagan. Tahlillardan anglanadiki, zamonaviy jamiyatda o'quvchi shaxsining imkoniyati, qobiliyatini shakllantirish zarurati mavjuddir. Ushbu ehtiyoj o'quvchining individual rivojlanishini pedagogik jihatdan o'rganish va darajali differensial yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy-amaliy holatlarini aniqlash muammosini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A-1-173. "Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish" mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi darajali differensial yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini faollashtirishning ilmiy-pedagogik asoslarini tadqiq etish va metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

darajali differensial yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etishning pedagogik va psixologik xususiyatlari hamda omillarini aniqlash;

darajali differensial yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etish mazmunini aniqlashtirish;

boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etishda darajali differensial yondashuv texnologiyalarini takomillashtirish;

darajali differensial yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etish metodikasini ishlab chiqish va samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obykti sifatida darajali differensial yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etish jarayoni tanlab olindi.

– N4. – С.47-48; Смирнова И.М Научно-методические основы преподавания геометрии в условиях профильной дифференциации обучения: Монография.- М.: Прометей, 1994, - 152с. Глейзер Г.Д. Проблемы индивидуализации и дифференциации обучения в вечерней школе. - М.: Изд-во АПН, 1991.- 81с; Глушков И.К Изучение нового материала с использованием дифференцированных знаний // Нач.школа. - 1992.- N4. С.29-33; Голубева Э.А. Способности и индивидуальность. - М.: Прометей, 1993.-304 с.; Гусев В.А. Методические основы дифференцированного обучения математике в средней школе: Дисс....докт.пед.наук. М.,1990.- 364с.

Tadqiqotning predmetini darajali differensial yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etish mazmuni, shakllari va metodlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv va metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, ijtimoiy so'rov, o'quvchilar faoliyatini qiyosiy tahlili, pedagogik prognostika va tashxislash, sintez, ekspert baholash, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim jarayoniga differensial yondashuv tushunchasining genezisi darajali (ichki) va profil (tashqi) differensiallashning yuzaga kelishiga ko'ra bilvosita tabaqalashtirish, psixofiziologik xususiyatlarga ko'ra tabaqalashtirish hamda differensiallashtirishda ilmiy-amaliy tadqiqotlar integratsiyasining ifodalanishi kabi rivojlanish bosqichlarga ajratgan holda davriylashtirish orqali aniqlashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etishning boshlang'ich ta'lim jarayoni barcha komponentlarini qamrab olish, o'quvchilarning subyektiv imkoniyatlariga moslashtirish, teskari aloqani o'rnatish, ta'lim mazmunini optimallashtirish kabi bosqichlari integrativlik, darajalilik, adaptivlik, insonparvarlik, refleksivlik tamoyillari asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etishning funksional modeli ta'limni darajali differensiallashtirish va individuallashtirish texnologiyalarining o'zaro uyg'unligi asosida motivatsion (qiziquvchanlik), kognitiv (fikrlash) va faoliyatli (bilimlarni amaliyotda qo'llash) mezonlarga tayangan holda takomillashtirilgan;

o'quv vazifalarini taqdim etish metodikasi innovatsion texnologiyalarning o'zaro integratsiyasini ta'minlashda amal qilinadigan differensiallashtirishning darajali o'quv materiallarini maqsadga muvofiq yoritish, o'quvchilarning individual xususiyatlariga tayanish, o'quvchilarning individual uslublariga muvofiqlashtirish, barcha omillarni optimallashtirish kabi qonuniyatlar asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini darajali differensial yondashuv asosida taqdim etishning metodik tizimi ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini darajali differensial yondashuv asosida taqdim etishning modeli va uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini darajali differensial yondashuv asosida taqdim etishda ta'limni individuallashtirishning "Pedagogik strategiyalar"ni qo'llashning metodik ta'minoti taklif etilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini darajali differensial yondashuv asosida taqdim etishning metodik tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, "Darajali topshiriqlar tizimi" nomli variativ dastur orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiq etilayotgan muammoga ilmiy-pedagogik yondashuv, tadqiqot maqsadi, predmeti hamda pedagogik vazifalar mohiyatiga muvofiq tadqiqot metodlarining tanlanganligi, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan boshlang'ich sinf o'quvchilar sonining belgilangan talablarga mosligi, tajriba-sinov ishlarining statistik ma'lumotlarga asoslanganligi va matematik-statistik jihatdan qayta ishlanganligi, tahliliy materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan hajmda ekanligi, dissertatsiya mazmunining ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar hamda ilmiy anjumanlardagi ma'ruzalar orqali ommalashtirilganligida o'z aksini topgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotimizning ilmiy ahamiyati boshlang'ich sinf o'quvchilarining darajali differensial yondashuv asosida o'quv topshiriqlarini taqdim etish bilan bog'liq modelini hamda differensial yondashuvning "Pedagogik strategiyalar"ni taklif etilgani, "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" hamda "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" o'quv qo'llanmalari nashr etilganligi, boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida foydalanishi uchun "O'quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash" nomli elektron mobil ilova ishlab chiqilganligi, darajali differensial yondashuvning asosiy omillari, vositalari tahlil etilganligi, mavjud nazariy-fundamental bilimlarning kengaytirilganligi, o'quv topshiriqlari darajasi tartiblanganligi, o'quvchilar imkoniyati va psixo-fiziologik xususiyatlarining aniqlanganligi, xorijiy tajribalar tahlil qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotimizning amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini faollashtirish, ularning qobiliyati, imkoniyatini hisobga olish asosida differensial vazifalar berishga oid topshiriqlar, ilmiy metodik tavsiyalar bilan boyitilganligi, differensial metodik usullar, metodlar va elektron dasturiy ta'minotning ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, malaka oshirish kurslari tinglovchilari, oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari darajali differensial yondashuv asosida o'quv topshiriqlarini taqdim etish ishlarini amalga oshirish jarayonida samarali foydalanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Darajali differensial yondashuv asosida o'quv topshiriqlarini taqdim etish ishlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy natijalari:

boshlang'ich ta'lim jarayoniga differensial yondashuv tushunchasining genezisi darajali (ichki) va profil (tashqi) differensiallashtirishning yuzaga kelishiga ko'ra bilvosita tabaqalashtirish, psixofiziologik xususiyatlarga ko'ra tabaqalashtirish hamda differensiallashtirishda ilmiy-amaliy tadqiqotlar integratsiyasining ifodalanishi kabi rivojlanish bosqichlarga ajratgan holda davriylashtirish orqali aniqlashtirilgan ma'lumotlardan "OT-F1-049 raqamli "Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari" (2017-2021) nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Jizzax Politexnika institutining 2022-yil 18-oktabrdagi 01-2449-2441 son

ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida o'quv vazifalariga ijobiy munosabatni qaror toptirishga xizmat qilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etishning boshlang'ich ta'lim jarayoni barcha komponentlarini qamrab olish, o'quvchilarning subyektiv imkoniyatlariga moslashtirish, teskari aloqani o'rnatish, ta'lim mazmunini optimallashtirish kabi bosqichlari integrativlik, adaptivlik, insonparvarlik, refleksivlik tamoyillari asosida takomillashtirishga doir xulosalar boshlang'ich ta'lim yo'nalishi uchun tayyorlangan "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug'iga asosida ro'yxatga olingan 388-149-son guvohnomasi). Natijada o'quvchilarga o'quv vazifalarini darajali differensial taqdim etishda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etishning funksional modelini ta'limni darajali differensiallashtirish va individuallashtirish texnologiyalarining o'zaro uyg'unligi asosida motivatsion (qiziquvchanlik), kognitiv (fikrlash) va faoliyatli (bilimlarni amaliyotda qo'llash) mezonlarga tayangan holda takomillashtirilganligiga doir tajribalardan "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" o'quv qo'llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-0372-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarga o'quv vazifalarini darajali differensial taqdim etish imkoniyatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qilgan;

innovatsion texnologiyalarning o'zaro integratsiyasini ta'minlashda amal qilinadigan differensiallashtirishning darajali o'quv materiallarini maqsadga muvofiq yoritish, o'quvchilarning individual xususiyatlariga tayanish, o'quvchilarning individual uslublariga muvofiqlashtirish, barcha omillarni optimallashtirish kabi qonuniyatlar asosida takomillashtirilgan o'quv vazifalarini taqdim etish metodikasidan Qashqadaryo, Xorazm, Jizzax viloyatlari umumta'lim maktablarida o'quv jarayonini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi tomonidan berilgan 2022-yil 19-oktabrdagi № 01/11-01/1-1650 sonli ma'lumotnoma) Natijada o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish e'lon qilingan bo'lib, jumladan, ikkita o'quv qo'llanma, 18 ta maqola, OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta xorijiy hamda 4 ta respublika ilmiy jurnallarida nashr qilingan. Dasturiy mahsulot uchun Intellektual mulk agentligidan 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlan-tirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va tuzilmasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Zamonaviy ta'limga differensial yondashuv pedagogik muammo sifatida”** deb nomlanib, bobda ta'lim paradigmasining faoliyatga kirib kelishi tizimining moslashuvchanligini kuchaytirish, jadal qayta qurish imkoniyatlarini oshirish, o'quv jarayonida insonparvarlik tamoyiliga amal qilish, ta'lim muassasalarining variativlarini (xususiyl boshlang'ich maktablar) joriy etish, ta'lim muassasalarining barcha ko'rinishida o'quvchining individual xususiyatlarini, ularning mustaqilligini, targ'ib qilish kabi yangi yechimlarni talab qilishi va muammoni yechimini differensial o'qitish imkonini kengaytirish asnosida amalga oshirishning ilmiy nazariy tahlili keltirilgan.

Differentsiya – muayyan tizimda shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zlashtirishiga qaratilgan faoliyatdir. Differensial ta'lim (lot. “differentia” - farq) - o'quvchilarning layoqati, qiziqishlari, qobiliyatini inobatga olgan holda tashkil etiladigan o'quv faoliyati shakli.

O'quv faoliyati – bu o'quvchining o'rganish qobiliyatini tavsiflovchi tizimli faoliyat bo'lsa, o'quv qobiliyati – bu o'quvchilarning o'ziga xos shaxsiy fazilatlarini va intellektiga bog'liq bo'lgan murakkab xususiyatdir. O'quv jarayonida o'quvchi intellektini hisobga olish – darajali differensial vazifalar orqali mohiyat kasb etadi.

Darajali vazifa – bu bir butun mavzuning bo'linishi, uni qismlarga ajratish bo'lib, topshiriq hajmi, ahamiyati natijada uyg'unlik kasb etishidir. Darajali differensial yondashuv – qismlarga ajratilgan o'quv muammosini o'quvchilarning bilim o'zlashtirish imkoniyatiga ko'ra moslashtirish asosida amalga oshiriladigan o'quv faoliyatidir. Bizningcha, darajali differensial yondashuv - o'quvchilarni o'quv faoliyatidagi individualligini aniqlash va hisobga olish, ularning har biri uchun o'quv vazifalarning xususiyatini ajratish hamda eng samarali turini taklif etishdir.

Darajali differensial yondashuv asosida o'quvchilarga o'quv topshiriqlarini taqdim etish pedagogik faoliyatda o'quvchi shaxsining subyektga aylantirish zaruratini anglatadi. Shu jihatdan bu yondashuv mexanizmlari shaxsga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatli.

Darajali differensial yondashuv quyidagilarga asos bo'ladi:

o'rganiladigan mavzu (muammo)ni daraja (qism)ga bo'lib o'rganish;

har bir daraja (qism) – motivatsion, kognitiv - faoliyatli rivojlantirish imkoniyatni berishga;

mavzuni har bir daraja (qism)ini inobatga olish asosida, o‘quvchilarda konvergent tafakkurni rivojlantirishga;

darajali differensial yondashuv mavzuni to‘liq o‘zlashtirishga asos bo‘lib, mavzuni har bir darajasini tasniflashda, asosiy g‘oyani ajratib olishda, xulosalar chiqarishga;

darajalangan mavzu mazmuni o‘quvchi bilish imkoniyati asosida tabaqalashtirishga imkon beradi.

Darajali differensial yondashuv mohiyatiga ko‘ra ichki va tashqi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Ichki differensiya – bu o‘quvchilarning barqaror guruhlarga bo‘linishi bo‘lib, ularda o‘quvchilarning dominant tipologik xususiyati hisobga olingan holda ta‘limning maqsadi, mazmuni, o‘qitish shakllari va usullari muntazam ravishda tanlanadi hamda amalga oshiriladi.

Tashqi differensiya - o‘quvchi imkoniyatini rivojlantiruvchi ixtisoslashgan sinflarda olib borishni va ularning aniq kasbiy moyillik va qiziqishlarini namoyon etish istiqbollari belgilab berishga asoslanadi.

Darajali differensial yondashuv ichki differensiya g‘oyasini amalga oshirish uchun xizmat qilib, qobiliyati va bilim o‘zlashtirishi turli darajadagi o‘quvchilar bilan guruhli va individual o‘quv faoliyatini tashkil etish imkonini beradi. Darajali differensial yondashuvning xususiyatlariga ko‘ra boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni individual o‘rganish, materialni o‘zlashtirish tempining o‘zgaruvchanligini, o‘quv vazifalarini differensiatsiyalashni, turli xil faoliyat turlarini tanlashni, o‘qituvchi yordamining mohiyati va imkoniyatini aniqlashni o‘z ichiga oladi.

Darajali differensial yondashuv asosida o‘quv vazifalari berishda, avvalo, o‘quvchilarning xarakterli xususiyatlari, qiziqishlari, bilish darajasini aniqlash muhim. Chunki, bu o‘quvchining ta‘lim faoliyatiga bevosita ta‘sir etadi. Agar o‘qituvchi shaxsning individualligiga alohida e‘tibor qaratsa, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini rag‘batlantirishga hamda ularning bilim qiziqishlarini uyg‘otishga harakat qilsa, u holda o‘qishda muvaffaqiyat kafolatlanadi. Bunday mashg‘ulot zerikarli kuch emas, balki o‘quvchilar uchun quvonch bo‘ladi, odatiy o‘qitish kabi charchoqni his etmaydi. Chunki, o‘quvchilar o‘z bilim darajasiga ko‘ra vazifalarni bajaradilar, o‘zlarini ijodiy rivojlantirib boradilar.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘quv vazifalarini darajali differensial yondashuv asosida taqdim etish metodikasi”** deb nomlanib, bobda o‘quv topshiriqlarini darajali differensial yondashuv asosida taqdim etishning mohiyatini, o‘quv jarayoniga mazkur yondashuvni qo‘llash imkoniyatlarini, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faoliyatini tahlil qilish asosida o‘quvchilarni differensial o‘qitish uchun metodik tayyorgarligini ko‘rish va amalga oshirish jarayonini tahlil qilish asosida tadqiqotning modeli taklif etilgan.

Darajali differensial yondashuv asosida o‘quv vazifalarini taqdim etishda o‘quvchilarning individual topshiriqlarni bajarishga qaratilgan va umumiy

guruhlarda yoki yakka tartibda olib boriladigan o'quv faoliyati asosiy omil hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etishda darajali differensial yondashuvni amalga oshirishning o'ziga xos mezonlari asosida tahlil qilish va ularni shartli ravishda quyidagi integrativ xususiyatlar bilan bog'lash mumkin degan xulosaga kelishga imkon beradi:

o'quvchilarning individual psixofiziologik xususiyatlari (kognitiv uslub, hissiy modallik, miya yarim sharlari funksiyalarining ustunligi, temperament turi);

ta'lim imkoniyatlari (o'rganish darajasi, intellektual qobiliyatlarni shakllantirish va kognitiv mustaqillik bilan tavsiflanadi) va ta'lim samaradorligi (jismoniy ko'rsatkichlar, o'qishga munosabat, kognitiv qiziqishlar, qat'iyatlilik va maqsadga muvofiqlik bilan tavsiflanadi);


umumiy va maxsus qobiliyatlar, kasbiy yo'nalishlar va rejalashtirilgan kasbiy faoliyat.

Darajali differensial yondashuv mazmuni asosida, avvalo o'qituvchi mazkur yondashuvning shakl va uslubidan xabardor bo'lish qonuniyatini anglashi lozim. Bu esa quyidagi qonuniyatni o'zida ifoda etadi (1-rasm).




1-rasm. Darajali differensial yondashuv qonuniyati.

Darajali differensial yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etish mazmunining o'ziga xosligini tahlil etish asosida tadqiqotning funksional modeli taklif qilindi (2-rasm).



2-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv materiallarini darajali differensial yondashuv asosida taqdim etish modeli.

Darajali differensial yondashuv modeli asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etish bir qator o'ziga xos tamoyillarning nazariy asoslarini ishlab chiqishga, pedagogik faoliyat amaliyotida qo'llashga zamin tayyorlaydi (3-rasm).



3-rasm. Darajali differensial yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etish tamoyillari.

Darajali differensial yondashuvning o'ziga xos tamoyili asosida o'quv jarayonini tashkil etishda o'qituvchi faoliyatining algoritmi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1-bosqich – mavzuni darajali mezonlarini aniqlash. Darajali mezonlarini tanlash o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadlarga bog'liq. Agar o'qituvchining maqsadi o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish bo'lsa, "ta'lim imkoniyatlari" integral mezoni tanlanadi. Ta'lim imkoniyatlari – bu o'quvchilarning bilimi, faolligi va shaxsiy rivojlanishining erishilgan va potensial darajalarini, shuningdek, ularning o'quv faoliyatini tashkil etish samaradorligi darajasini aks ettiruvchi integral ko'rsatkichi hisoblanadi.

2-bosqich – tanlangan mezon bo'yicha o'quvchilarning tizimli diagnostikasini amalga oshirish. Bunda ta'lim imkoniyatlarining tarkibiy qismlarini diagnostika qilish asosida o'qituvchi nafaqat o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini baholashi, balki har bir o'quvchining (iqtidorli va kognitiv darajasi) o'quv faoliyatining muvaffaqiyatini tahlil qilishi mumkin.

3-bosqich – tashxis natijalariga ko'ra o'quvchilarni tipologik guruhlariga differensiallash. Bu bosqichda o'qituvchi "Diagnostik sinf xaritasi" asosida har bir o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatlari darajasini, o'z-o'zini baholashining ishonchlilik darajasini, qaysi tipologik guruhga mansubligini aniqlaydi. Ushbu bosqich o'rganish imkoniyatlari darajasiga ko'ra tipologik guruhlarini aniqlash bilan yakunlanadi ("kuchli", "o'rta-kuchli", "o'rta", "o'rta-kuchsiz" va "kuchsiz").

4-bosqich – differensial o'qitish usullarini tanlash. Ushbu bosqichda o'qituvchi har bir tipologik guruh uchun o'quvchilarning bilimini tashkil etishning pedagogik strategiyasini tanlaydi.

5-bosqich – o‘quv jarayonida darajali-differensial yondashuvni amalga oshirish. Ushbu bosqichning har biri o‘quvchining o‘quv va kognitiv faoliyatini boshqarish strategiyasi orqali amalga oshiriladi.

Darajali differensial yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘quv vazifalarini taqdim etishda o‘quvchilarning o‘rganish imkoniyatlari darajasining tipologiyasi hamda pedagogik strategiya asosida vazifalar taqdim etildi.

1-jadval.

O‘quvchilarning o‘rganish imkoniyatlari darajasining tipologiyasi hamda pedagogik strategiyasi

Tipologik guruh	Taklif etiladigan strategiya
“Kuchli” o‘quvchilar	“Birgalikda yaratish” strategiyasi
“O‘rta kuchli”	“Hamkorlik” strategiyasi
“O‘rtacha” o‘quvchilar	“Yetakchilik” strategiyasi
“O‘rta kuchsiz” o‘quvchilar	“Rag‘batlantirish” strategiyasi
“Kuchsiz” o‘quvchilar	“Qo‘llab-quvvatlash” strategiyasi

Darajali differensial yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘quv vazifalarini taqdim etish o‘z-o‘zidan amalga oshirilmaydi, balki bir qator pedagogik shart-sharoitlarni talab qiladi:

1. Ko‘rsatma:

vazifalarga javoblar;

vazifadagi harakatlar tartibi;

muammoni hal qilishning umumiy prinsipi;

vazifalarni bajarishda ishlatilishi kerak bo‘lgan ta’riflar, qoidalar, xulosalar;

2. Namuna taqdim etish;

3. O‘quv topshiriqlarni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar.

Darajali differensial yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘quv vazifalarini taqdim etishda o‘quvchilarning quyidagi individual xususiyatlarini hisobga olgan holda taklif etiladi:

o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasi;

umumiy va maxsus qobiliyatlar;

ta’lim qobiliyatlari;

kognitiv qiziqishlar.

Darajali differensial yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘quv vazifalarini taqdim etish jamoaviy, individual, guruhli, juftliklarda ishlash,

zamonaviy pedagogik texnologiyalari: “Chig‘iriq”, “Ingichka va yo‘g‘on” “Zinama-zina”, “Qora quti” “Kubik”, “Rangli qalpoqchalar”, “Olmos” hamda o‘yin texnologiyalari: “Sokin so‘rov”, “O‘quv komikslari”, “Yosh pedagog”, “O‘zim-o‘zinga ustoz”, “So‘nggi bosqich” kabi o‘yin texnologiyalari asosida olib borildi. Masalan, “Chig‘iriq” metodi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:


1. O‘quvchilarni bilim o‘zlashtirishlarining o‘ziga xos darajasiga (darajalari yuqorida ko‘rsatib o‘tildi) qarab besh nafardan kichik guruhlarga bo‘linishadi.

2. Har bir guruh a‘zolari o‘z raqamiga ega bo‘ladi (1dan 5 gacha).

3. Guruhlarning a‘zolari topshiriqlarni qo‘llariga berilgan kartochkalarga tayangan holda tayyorlanadilar.


4. Har bir kichik guruh kartochkalardagi topshiriqlarni o‘zlari bajaradi, ya‘ni kartochkalardagi topshiriqlar bo‘yicha javoblarini tayyorlaydilar.

5. Barcha kichik guruhlarning tayyorgarligi nihoyasiga yetgach, taqdimot boshlanadi. Shunda o‘quvchilar qaysidir bir raqamni, misol uchun, “3” raqamini aytadi. Har bir guruhning 3-raqamli ishtirokchisi o‘z javoblarini taqdim qiladi. Shunday qilinganda, kichik guruhlardagi eng faol o‘quvchilarning har safar taqdimotchi bo‘lib qolish xavfi bartaraf qilinadi. “Chig‘iriq” usuli qo‘llanganda amalga oshiriladigan o‘qitish jarayoni chizmada quyidagicha aks ettirilishi mumkin:



4-rasm. “Chig‘iriq” usulidan foydalanish chizmasi.

“Olmos” texnologiyasi ma‘lum bir sonlardan iborat bo‘lib, har bir qatorda berilgan sonlarda turli darajadagi tabaqalashtirilgan savollar taklif etiladi. O‘quvchilar juftlikda doskaga chiqishadi (faol va past o‘zlashtiradigan). O‘qituvchi ularga raqam taklif etadi (masalan, faol o‘zlashtirish ko‘ratkichiga ega o‘quvchiga 1 raqamini, qiyin o‘zlashtiradigan o‘quvchiga esa 9 raqamini). O‘quvchilar o‘zlarining bilim darajasiga mos muammo yoki savollar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildiradilar. Bunda baholash “5” va “Olmos” so‘zlari bilan tasdiqlanadi. Oson savolga aniq javob bergan bolaga “5” baho, ijodiy tafakkurga ega bola “Olmos” bola darajasi beriladi. Metod o‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga o‘rgatadi. Metodning ta‘lim jarayonida chizmasi quyidagicha aks ettirilishi mumkin:



5-rasm. “Olmos” texnologiyasi uchun chizma.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyati faollashgani sayin ular yuqori darajalarga o‘tkazilishi hamda vazifalar ham murakkablashtirib borilishi maqsadga muvofiq. Bunda darajali differensial yondashuv asosida o‘quv vazifalarining maxsus turlari ishlab chiqilishi lozim. U asosan quyidagi belgilarga ko‘ra tasniflanadi: ko‘makchi masalalar, asosiy savolni yechishga undovchi savol va ko‘rsatmalar, qo‘shimcha omillar (rasm, jadval, chizma).

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Tadqiqot muammosiga doir tajriba-sinov ishlari samaradorligi”** deb nomlanib, tajriba tekshiruvining asosiy qoidalarini tadqiq etish uchun baza sifatida Qashqadaryo, Xorazm va Jizzax viloyatlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan 534 nafar hamda 32 nafar o‘qituvchilar tanlab olingan.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi va har bir bosqichda muayyan vazifalar hal etildi: *qayd qilish bosqichi; tashkiliy bosqich; o‘quv-biluv bosqichi.*


Darajali differensial yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv vazifalari natijalarini baholash mezonlari sifatida quyidagilar aniqlashtirildi: *motivatsion; kognitiv; faoliyatli.*

Darajali differensial yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv vazifalarini bajarish ko‘nikmasini baholash quyidagi darajalarga asoslangan holda amalga oshirildi: *a‘lo; yaxshi; qoniqarli; qoniqarsiz.*

Umumiy o'zlashtirishning sondagi va foizdagi qiymatlari

Tajriba-sinov obyektini	Ko'rsatkichi	Tajriba-sinov guruhlari				Nazorat guruhlari			
		Tajriba boshida	%	Tajriba oxirida	%	Tajriba boshida	%	Tajriba oxirida	%
Barcha tajriba-sinov obyektlari bo'yicha umumiy natijalar	A'lo	38	14,2	75	28,0	39	14,7	50	18,8
	Yaxshi	77	28,7	120	44,8	74	27,8	90	33,8
	Qoniqarli	131	48,9	73	27,2	128	48,1	112	42,1
	Qoniqarsiz	22	8,2	0	0,0	25	9,4	14	5,3
Jami		268	100	268	100	266	100	266	100

Ushbu natijalarni diagramma ko'rinishda uchta viloyat bo'yicha qo'yidagicha ifodalaymiz va diagramma orqali natijalarni yaqqol ko'rishimiz mumkin bo'ladi (4-rasm).



4-rasm. Viloyatlardagi umumiy natijalarning diagrammasi

Olingan sonli ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilishda Studentning tanlama mezoni, K.Pirsonning muvofiqlik kriteriysi va Laplas funksiyasidan foydalanildi.

Tajriba va nazorat guruhidagi baholash natijalarini mos ravishda 1- va 2-tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo‘lamiz:

3-jadval.

Tanlanmalarning baholash mezonlari asosidagi qiymatlari

	1-tanlanma					
Tajriba guruhi	X_i	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	Jami
	n_i	75	120	73	0	n=268
	2-tanlanma					
Nazorat guruhi	Y_j	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	Jami
	m_j	50	90	112	14	m=266

O‘zlashtirish darajasini quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 n_i X_i = \frac{1}{268} (75 \cdot 5 + 120 \cdot 4 + 73 \cdot 3 + 0 \cdot 2) = \frac{1}{268} (375 + 480 + 219 + 0) = \frac{1074}{268} = 4,00 \approx 4$$

$$\text{Foizda } \bar{X}\% = \frac{4,0}{3} \cdot 100\% = 133\%$$

$$\bar{Y} = \frac{1}{m} \sum_{j=1}^3 m_j Y_j = \frac{1}{266} (50 \cdot 5 + 90 \cdot 4 + 112 \cdot 3 + 14 \cdot 2) = \frac{1}{266} (250 + 360 + 336 + 28) = \frac{974}{266} = 3,66 \approx 3,7$$

$$\text{Foizda } \bar{Y}\% = \frac{3,66}{3} \cdot 100\% = 122\%$$

Tajriba guruhidagi o‘rtacha o‘zlashtirish nazorat guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichidan $(133-122)\% = 11\%$ ga yuqori ekan. Bu esa o‘z navbatida

$$\frac{133\%}{122\%} = 1,09$$

barobar ortiqligini anglatadi. Ushbu o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini foizlarda hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} P &= \frac{X}{3} \cdot 100\% - \frac{Y}{3} \cdot 100\% = \frac{4}{3} \cdot 100\% - \frac{3,66}{3} \cdot 100\% = \\ &= \frac{400}{3}\% - \frac{366}{3}\% = \frac{34}{3}\% = 11,3\%; \end{aligned}$$

Bundan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, tajriba guruhining ko‘rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 11,3 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

XULOSALAR

1. Mavjud adabiyotlarning tahlili, amalga oshirgan kuzatishlarimiz biz belgilagan maqsadning to'g'riligini isbotladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilish faoliyatini faollashtirishda differensial yondashuvning didaktik asoslarini tahlil qilish bugungi kunning o'z yechimini kutayotgan pedagogik muammolaridan biri ekanligini asoslash imkoniyatiga ega bo'ldik.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilish faoliyatini faollashtirishda xizmat qiladigan nazariy bilimlar va amaliy tajribalar bilan izchil qurollanish zarurligini izlanishlarimiz yaqqol ko'rsatdi. Shuningdek, darajali differensial yondashuv asosida o'quv topshiriqlarini taqdim etishda ularning yosh xususiyatlari, ruhiy olami, hissiyotlari, imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga egaligi aniqlandi.

3. Pedagogik, psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilish faoliyatini faollashtirishda differensial yondashuvga yo'naltirilgan muayyan pedagogik tizim va o'quv jarayonining maqsadli yo'naltirilgan texnologiyasini ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilish faoliyatini faollashtirishda ularda hosil bo'lgan umumiy o'quv ko'nikmalarining o'ziga xos xususiyatlariga tayanish lozim va bunda darajali differensial yondashuvning imkoniyati keng va samarali.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv vazifalarini taqdim etishda darajali differensial yondashuv asosida tashkil etiladigan jarayonning didaktik tizimini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

6. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni bilish faoliyatini faollashtirishda darajali differensial yondashuv bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir. Zero, bunday topshiriqlar o'quvchilarni mustaqil, ijodiy fikrlash, o'rganilayotgan masalalar mohiyatini chuqurroq anglashga o'rgatadi, ularning dunyoqarashlari shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

7. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darajali differensial yondashuv asosida o'quv topshiriqlarini taqdim etishda tizimlilik, uzviylik va izchillikka e'tibor qaratish zarur. Ta'lim jarayonida boshlangan ta'sirlar uyga vazifalar, mustaqil topshiriqlar orqali mustahkamlanishi va davom ettirilishi lozim.

8. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darajali differensial yondashuv asosida o'quv topshiriqlarini taqdim etishda innovatsion texnologiyalar, didaktik o'yinlardan o'rinli foydalanish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Shu sababli o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda darajali differensial yondashuvning "Pedagogik strategiyalari"ni qo'llashning ustuvorligi aniqlandi.

9. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darajali differensial yondashuv asosida o'quv topshiriqlarini taqdim etishda darsliklardagi o'quv materiallarini darajalash va "Differensial topshiriqlar tizimi"ning imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mazkur yondashuvda o'qituvchilar asosiy kuch bo'lib, ularni bu borada ilmiy-metodik tavsiyalar hamda nazariy ma'lumotlar bilan qurollantirish zarur.

Yuqorida keltirib o‘tilgan xulosalarni inobatga olib, quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Boshlang‘ich sinf darsliklarida taklif etilgan topshiriqlarni differensiallash va didaktik ishlov bergan holda muayyan izchillikda bayon etib to‘plam shakliga keltirish.

2. Oliy o‘quv yurtlari boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi dasturlari va darsliklari, ma‘ruza matnlari tarkibiga “Bo‘lajak o‘qituvchini differensial o‘qitishga tayyorlash” fanini kiritish.

3. O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari mazmuniga “Differensial o‘qitishning pedagogik va metodik asoslari” modulini kiritish.

4. Boshlang‘ich sinflarning darsliklariga ko‘p bosqichli differensial topshiriqlar namunalari kiritish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНИ
PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 ПРИ
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ОЧИЛОВ АКМАЛ ЭШТЕМИРОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ
УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ УЧАЩИМСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С
УРОВНЕВО-ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫМ ПОДХОДОМ**

13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания (начальное образование)

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Карши – 2023

Тема диссертации доктора философии наук (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером B2022.2.Phd/Ped3611

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Каршинском государственном университете. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.qarshidu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Нуруллаева Шахло Уктамовна доктор педагогических наук (DSc), профессор
Официальные оппоненты:	Урзова Марина Батыровна доктор педагогических наук (DSc), профессор Адизов Бахтиёр Рахмонович доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ведущая организация:	Термезский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится «__» _____ 2023 года в__ часов на заседании разового Научного совета по присуждению учёной степени PhD.03/04.06.2020.Ped 70.02 при Научном совете Каршинского государственного университета (Адрес: 180100, г. Карши ул. Кучабог 17. Тел.: (+99875) 225-34-13, факс: (+99875) 221-00-56, e-mail: kardu@mail.ru) Каршинский государственный университет, факультет Педагогика, 217-аудитория.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 180100, г. Карши ул. Кучабог 17. Тел.: (+99875) 225-34-13, факс: (+99875) 221-00-56, e-mail: kardu@mail.ru)

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 года
(протокол рассылки №__ от «__» _____ 2023 года).

Р.Д.Шодиев
Председатель Научного совета
по присуждению ученой степени,
д.п.н., профессор

И.Б.Камолов
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученой степени,
д.ф.п.н. (PhD), профессор

Х.О.Жураев
Заместитель председателя Научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученой степени, д.п.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Оптимальные пути модернизации современного начального образования в мире является важной задачей сегодняшнего дня. В связи с этим меморандум международного симпозиума «Университет фундаментального (научно-гуманитарного) образования» при ЮНЕСКО; заключения региональной конференции, проведенной ЮНЕСКО в 1996-1998 гг.; заключения первой образовательной конференции в Гаване, Дакаре, Токио, Палермо, Бейрут (Париж октябрь 1998 года), государственный образовательный стандарт начального образования, систематизация оценки учащимися начальных классов своих способностей по чтению (EGRA) и математике (EGMA) привела к реальному внедрению новой структуры начального образования. Содержание этого документа определяет стратегическую и основную цель начального образования. С целью сохранения у учащихся фундаментальных принципов образования, следованию опыту мировой практике образовательного подхода, проявлению потенциала, удовлетворение потребности обучающихся, считается важным использование в процессе образования современных и качественных подходов

PISA, TIMSS, PIRLS, которые используются в развитых странах мира, являются ведущими международными исследованиями и программами по оценке уровня знаний учащихся. В исследованиях по модернизации системы образования в развитых странах особое внимание уделяется обучению детей младшего школьного возраста, воспитанию в соответствии с интересами, пожеланиями и потребностями учащихся, использованию образовательных технологий, направленных на развитие личности. В образовании и воспитании приоритет отдается исследованиям, посвященным проблемам акмеологического подхода.

Принимая во внимание, что в нашей стране всестороннее развитие младших школьников, активизация их познавательной деятельности в образовательном процессе служит одним из основных факторов развития общества, «...повышение престижа образования в обществе и поощрение стремление молодежи к совершенству — это достижение стабильного и последовательного прогресса, использование интерактивных методов обучения и воспитания для превращения школ в центры духовности, просвещения и культуры»⁴ определена как важная задача. Для реализации этой задачи важно подходить к обучению на основе гуманитарного принципа с учетом возможностей, интересов и способностей младших школьников. Также актуальной задачей является расширение возможностей формирования способностей и интеллектуального потенциала обучающегося в рамках его собственных возможностей.

⁴ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – B.299-300.

